

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-6

#### TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.

**Xoliqova Nazira Qoyirovna,**

120- maktab Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi, Matematika va informatika metodisti

**Xoliqova Manzura Qoyirovna**

-Assistent, Toshkent Davlat Agrar Universiteti

тел.: +998934758834, [manzuraxoliqova37@gmail.com](mailto:manzuraxoliqova37@gmail.com)

тел.: +998930058208, [nazira.qoyirovna@gmail.com](mailto:nazira.qoyirovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lism sohasida juda muhim bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan. Shu jumladan bugungi kundagi ta'lism sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Axborot, ma'lumot , texnologiya, dastur, dasturlash, algoritm, algoritmlash ,tizim, metod, integratsiya.

Bugungi kuda kelib , zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lism tizimiga tadbiq etish, iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida yangi o'qitish uslublarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. Ta'lism tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash asosan, axborot texnologiyalarining pedagogik-dasturiy vositalari yaratilishi bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi o'z-o'zidan ma'lumki, o'qitishni tashkil etishning yangi usullari va shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi. Oliy va o'rta ta'limga zamonaviy darajasi mutaxassislarni kasbiy tayyorlash samaradorligini oshirishga, ta'limga sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan o'quv jarayonini global axborotlashtirish bilan bog'liq.

Oliy va o'rta maxsus ta'lism jarayonida yangi zamonaviy axborot texnologiyalaridan va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron o'quv materiallari, barcha fanlarga oid platformalar va zamonaviy kompyuter o'quv dasturlarini yaratish kerak. Bu metodlardan foydalanish yagona zamonaviy ta'lism axborot muhitini shakllantirishning murakkab muammolarini o'z vaqtida hal qiladi. Kompyuterda o'qitish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'pincha oliy va o'rta maxsus o'quv fanlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni qurish va qo'llash tamoyillarini ilmiy-uslubiy asoslangan holda amalga oshiriladi. Bunday sharoitda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash tamoyillarini, shuningdek, ta'lism jarayonida elektron ta'lism resurslarini avtomatlashirish, loyihalash va ulardan foydalanish algoritmlari, dasturlari ,modellarini aniqlash zarur. An'anaviy o'qitish usullari va zamonaviy elektron ta'lism texnologiyalarining integratsiyasi kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishi yaqqol ko'rinish turibdi. Uning muhim tarkibiy qismi o'quv jarayoniga o'quv fanlarining elektron kurslarini joriy etishdan iboratdir. Ta'lism tizimi oldiga qo'yilayotgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchilardan kuchli bilim, tajriba, madaniyat, estetika, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarga, shogirdlariga zamonaviy axborot texnologiyalari dan foydalanishda hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni o'z vaqtida hal etish, bilimlarni izlash, har kun yangi axborotlarni aytib

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-6

borish, turli manbalardan olgan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qila olishi va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishga tayyor bo'lishligi kerak bo'ladi.

Har bir fan o'qituvchisi dars jarayoniga axborot texnologiyalari vositalarini joriy etishi , darslarni jahon tajribasiga mos keladigan darajada olib borishi, o'quvchilarini jahon olimpiadalarga chiqarishi lozim. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanining allgoritmini, dasturini va modelini tuzib olishi kerak bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha qilib yana onlayn platformalardan sinfonada foydalanish mumkin .

Onlayn platformadan darslarda foydalanish, darsning sifatini oshirishga juda katta ta'sir o'tkazadi. Onlayn platformalardan foydalanadigan darslarga darsga qiziqish, onlayn viktorina orqali o'quvchi va talabalar orasida do'stona raqobat, darslarni dsifatli o'zlashtirishda juda katta yordam berdi. Hozirgi davrda yana qo'shimcha qilib shuni aytish muhimki, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari , IT sohasi taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Raqamli texnologiyalar va IT yo'nalishi nafaqat davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada rivojlantiradi , balki ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari IT sohasi ,raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari ijobjiy iqtisodiy o'sishga katta zamin yaratadi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga bo'lgan ortiqcha talabning o'zgarishi, o'quvchilar o'z uylariga o'qish va boshqa xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, masofadan o'rganish har bir o'quvchiga(geografik uzoqlik, individual nogironlik, oilaviy sharoit) kirish imkoniyatini kengaytirishi bilan birga ta'lim sohasidagi zamonaviy axborot texnologiyalari savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni bunga misol qilib , geografik uzoqlik, individual nogironlik, oilaviy sharoiti kabilarni misol qilib olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bilim olish va bilim berishda, ma'lum turdag'i axborotlarni o'zlashtishda kompyuter tizimining yordami benihoya katta bo'lib qoldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar va elektron manbalar

1. "TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI" (2023-yil 30-may, Toshkent, o'zbekiston)
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy sayti - [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti - [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz rasmiy sayti - [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)